

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.12.2019.Tib.30.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O‘SIMLIK  
MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**HAMROYEV TOLMAS TOLIBOVICH**

**ANTIARITMIK FAOLIKKA EGA BO‘LGAN N-  
DEZATSETILLAPPAKONITINNING PERORAL SHAKLINI  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**14.00.17-Farmakologiya va klinik farmakologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Hamroyev Tolmas Tolibovich**

Antiaritmik faolikka ega bo‘lgan N-dezatsetillappakonitinning peroral shaklini samaradorligini baholash ..... 5

**Хамраев Толмас Толибович**

Оценка эффективности пероральной формы N-дезацетиллаппаконитина, обладающей антиаритмической активностью..... 22

**Khamroev Tolmas Tolibovich**

Evaluation of the effectiveness of the oral form of N-deacetylappaconitine with antiarrhythmic activity..... 42

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.04/30.12.2019.Tib.30.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O‘SIMLIK  
MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**HAMROYEV TOLMAS TOLIBOVICH**

**ANTIARITMIK FAOLIKKA EGA BO‘LGAN N-  
DEZATSETILLAPPAKONITINNING PERORAL SHAKLINI  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**14.00.17-Farmakologiya va klinik farmakologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Tib3370 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya akademik S.Y.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalar kimyosi institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tma.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sanoyev Zafar Isomiddinovich**

tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Hakimov Ziyovuddin Zaynutdinovich**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Fayziyeva Ziyoda To‘rayevna**

tibbiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Tib.30.02 raqamli Ilmiy kengashining 2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Farobiy ko‘chasi, 2. Tel/faks: (+99878) 150-78-25, e-mail: tta2005@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:100109, Toshkent sh., Olmazor tumani, Farobiy ko‘chasi 2- uy. Toshkent tibbiyot akademiyasi. Tel./faks: (+99878) 150-78-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.G. Gadaev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**D.A. Nabieva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, tibbiyot fanlari doktori, professor

**A.L. Alyavi**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari  
doktori, professor, akademik

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Yurak-qon tomir kasalliklari (YuQTK) butun dunyo bo‘ylab o‘lim va nogironlikning asosiy sababi bo‘lib, jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti taqdim etgan ma‘lumotlarga ko‘ra, yer yuzida YuQTK oqibatida har 32 soniyada bir o‘lim sodir bo‘ladi. Har yili YuQTK tufayli o‘lim 17,9 millionni tashkil etgan bo‘lsa 2021 yilning o‘zida esa ushbu miqdor 19 millionga yetganligi xususida ma‘lumotlar keltirilgan, bu dunyodagi barcha o‘limlarning 32 foizini tashkil etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti YuQTK o‘limning asosiy yetakchi sabablaridan bo‘lishini va 2030 yilga kelib, har yili 25 millionga yaqin odam asosan ushbu kasalliklardan vafot etishi taxmin qilinmoqda. Yurak ishemik kasalligi xususan, stenokardiya, miokard infarkti, kardiomiopatiya, shuningdek, yurakning revmatik shikastlanishlari, gipertoniya kasalligi, yurakning tug‘ma va orttirilgan nuqsonlari hamda turli yurak ritmi buzilishlari (YuRB) kabi holatlar YuQTK orasida eng ko‘p o‘limga olib keluvchi patologiyalar hisoblanadi.

Ayniqsa so‘nggi 10-15 yil ichida tashxislashda tizimli yondashuv paydo bo‘lishi o‘z navbatida yurak xuruji yuzaga kelgan bemorlarga etiologiyaga asoslangan individual terapiya o‘tkazish maqsadida tibbiyot amaliyotida sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. YuRBni davolash maqsadida intervension usullardan tobora ko‘proq foydalanilayotganiga qaramay aritmiyalarni davolashning asosiy usuli antiaritmik dorilarni (AAD) qo‘llash bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa hozirgi vaqtda supraventrikulyar taxiaritmiyalarning farmakoterapiyasi muammosi hali ham dolzarb bo‘lib, AAD aritmiyani “davolay olmasa” ham, ular aritmik faollikni kamaytirishi va qaytalanishini oldini oladi.

Mamlakatimiz tibbiyot sohasini rivojlantirish, turli somatik kasalliklarni samarali tashxislash va davolashda zamonaviy hamda mahalliy dori vositalarini yaratish, sog‘liqni saqlash tizimini jahon andozalari talablariga moslashtirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: «...mamlakatimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, kasalliklarni erta tashxislash va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmatini samarali modellarini yaratish orqali, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va kasalliklarni oldini olish ...»<sup>1</sup>. Yuqorida qayd etilgan vazifalar aholining turli qatlamlari orasida YuRBdan nogironlik va o‘lim ko‘rsatkichlarini pasayishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy mahalliy dori vositalarini yaratish va ulardan foydalanishni takomillashtirish orqali YuRB bilan bog‘liq asoratlar va og‘ir oqibatlarining kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PF-139-son «Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «O‘zbekiston Respublikasi

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda 5590-son «Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni

sogʻliqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmonlari, 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son «Farmasevtika tarmogʻini jadal rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi va 2018 yil 23 yanvardagi PQ-3489-son «Dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish hamda olib kirishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Mahalliy dorivor oʻsimlik xom-ashyolari asosida yurak qon-tomir tizimiga taʼsir koʻrsatuvchi vositalarni izlab topish va ularning kimyoviy-biologik xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha respublikamiz va MDH olimlaridan F.N.Djaxangirov, Sh.Sh.Sagdullayev, A.Z.Sadikov, N.V. Valiyev, B.T. Salimov, M.N. Sultanxodjayev, B. Tashxodjayev, M.S. Yunusov, Z.K. Kuzibaeva, A.A. Axiyarov, A.N. Lobov, S.P. Ivanovlar tomonidan *Aconitum* va *Delfinium* oilasiga mansub oʻsimliklar asosida turli xildagi aritmiyaga qarshi faollikka ega moddalarni izlash, farmakotoksikologik tadqiqotlar olib borish va ishlab chiqarish texnologiyasini yoʻlga qoʻyish boʻyicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, amaliyotga joriy qilingan yuqori antiaritmik faollikka ega allapinin preparatining farmakokinetik koʻrsatkichlari asosida uning asosiy taʼsir qiluvchi metabolitlarini ajratib olish va uning vena ichiga qoʻllash uchun inyeksion shakldagi dori vositasini amaliyotga joriy qilish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xorijiy davlatlar olimlari tomonidan aritmiyalar rivojlanishining molekulyar mexanizmlari, aritmiyaga qarshi dori vositalari (AQDV) taʼsir mexanizmlari hamda farmakokinetik koʻrsatkichlari xususiyatga ega boʻlgan asosida turli dori vositalarini yaratish, ularni biologik faolligini oʻrnatish boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazmoqdalar. Mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlar YJ. Wang, P. Tao, Y. Wang, Yao-yao Dong, Baiping Mao, Hongguo Guan, Yanfang Bai, Binghuan Chi, Yuan-yuan Shan, Qing-quan Lian, Ren-shan Ge va boshqalar tomonidan jadal rivojlantirilmoqda. Xususan, oʻsimlik dori vositalarini taʼsir mexanizmi va farmakologik xususiyatlarini oʻrganilishi, ularning aritmiyaga qarshi samarasini baholash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ammo N-dezatsetillappakonitinning ogʻiz orqali qoʻllash maqsadida uning spetsifik va umumiy farmakologik xususiyatlarini aniqlash boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar mavjud emas.

YuRBni davolashda turli jarrohlik hamda boshqa usullarining takomillashishi va koʻp sonli dori vositalarining boʻlishiga qaramasdan, ularning samaradorligi koʻp hollarda qoniqarsizligicha qolmoqda. Shuning uchun YuRB yuzaga kelishi oldini olishda va davolashda zamonaviy, zaharli tasiri kam yuqori samarali dori vositalarini izlash ustida olib borilgan tadqiqotlar ahamiyatga

molikdir. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, mahalliy dorivor o'simliklar asosida preparatlar yaratish va ularning farmakoterapevtik xususiyatlarini o'rganish zaruriyati yuzaga kelmoqda

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-201906150 "Yangi avlod antiaritmik preparati N-dezatsetillappakonitinning og'iz orqali ichish uchun (tabletk va kapsula) shaklini yaratish" (2021-2022) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** N-dezatsetillappakonitin substansiyasini og'iz orqali yuborilganda o'tkir va surunkali zaharliligini, terapevtik samaradorligi, antiaritmik ta'sir kengligi, ta'sir davomiyligi va umumiy farmakologik faolligini eksperimental tajribalarda o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning asosiy vazifalari:**

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini og'iz orqali yuborilganda terapevtik samaradorligi, antiaritmik ta'sir kengligi va ta'sir davomiyligi eksperimental tajribalarda aniqlash;

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini o'tkir va surunkali zaharliligini aniqlab uning bezararligini baholash;

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini umumiy farmakologik xossalarini o'rganish;

N-dezatsetillappakonitin alkaloidi substansiyasini tadqiqot sharoitida aritmiyaga qarshi ta'sir davomiyligini aniqlash;

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladigan yuqori antiaritmik faollikka ega bo'lgan preparatlar bilan solishtirib o'rganish.

**Tadqiqotning obyekt**i oq parpi (*Aconitum leucostomum*) va Shimoliy parpi (*Aconitum septentrionale*) o'simliklari, tajriba hayvonlaridan 160-230 g. sog'lom va aritmiyalar modelidagi oq kalamushlar, 18-24 g. oq sichqonlar, 300-360 g. dengiz cho'chqachalari, 2,5-3,0 kg. vaznlardagi quyonlar va mushuklar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** N-dezatsetillappakonitin alkaloidi substansiyasi, kasallik chaqiruvchi akonitin, bariy xlor, kalsiy xlor, adrenalin moddalari, solishtirma preparatlar allapinin va propafenon tijorat dori vositalari va tajribalarda N-dezatsetillappakonitinning tibbiy-biologik xavfsizligini baholash uchun ichki organlar to'qimalari va materiallari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Farmakologik, toksikologik, psixofarmakologik, biokimyoviy, gistomorfologik va statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Ilk bor N-dezatsetillappakonitinni substansiyasini og'iz orqali yuborilganda yuqori antiaritmik faollikka ega ekanligi asoslangan;

Tibbiyot amaliyotida keng qo'llaniladigan preparatlar allapinin va propafenondan kam zaharliligi, antiaritmik faolligi bo'yicha yuqori samaradorligi hamda ta'sir kengligi jihatidan ustunligi aniqlangan;

N-dezatsetillappakonitin alkaloidi substansiyasi aritmiyalarni oldini olishi asosan faol natriy va kaliy kanallari qamal qilishi orqali amalga oshishi eksperimental tajribalarda isbotlangan;

N-dezatsetillappakonitin alkaloidi substansiyasi allapinin va propafenonga nisbatan aritmiyaga qarshi uzoq ta'sir davomiyligiga ega ekanligi aniqlangan;

Eksperimental tadqiqotlarda N-dezatsetillappakonitin farmakodinamik xususiyatlari o'rganib chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

N-dezatsetillappakonitin substansiyasining og'iz orqali qo'llanilganda yurak ritmi buzilishiga qarshi samarali dozalari eksperimental hayvonlarda aniqlangan;

tajribalarda N-dezatsetillappakonitin substansiyasining bezararligi isbotlangan;

tajribalar natijalariga ko'ra, N-dezatsetillappakonitin substansiyasi bo'lmaxa va qorinchlarda yuzaga keladigan qo'zg'aluvchanlik bilan bog'liq ritm buzilishlarini oldini olishda samaradorligi isbotlangan;

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini o'rganish natijalari aniqlangan patologiyalarni davolash uchun samarali dorilarni yaratishda yangi istiqbollarni ochib beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** zamonaviy farmakologik, toksikologik, gistomorfologik, farmakodinamik usullardan foydalanish, ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, yetarli darajada material tanlanganligi, tajriba hayvonlari sonining, dori vositasining namunalari sonining yetarliligi va statistik analiz usullari yordamida isbotlangan. Olingan natijalar mahalliy va xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan preparatlar bilan antiaritmik faolligi bo'yicha solishtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundaki, mahalliy dorivor o'simlikdan ajratib olingan N-dezatsetillappakonitin substansiyasi og'iz orqali qo'llanilganda aritmiyaga qarshi ta'siri amalda qo'llaniladigan preparatlar Allapinin va propafenon bilan solishtirganda yaqqol aritmiyaga qarshi ta'siri isbotlangan. N-dezatsetillappakonitin substansiyasining bo'lmaxa va qorinchalarda yuzaga keladigan qo'zg'aluvchanlik bilan bog'liq ritm buzilishlarini oldini olishda tavsiya etish mumkinligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tibbiy amaliyotda aritmiyaga qarshi vosita sifatida mahalliy xom ashyodan ushbu samarali alkaloidlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradi. N-dezatsetillappakonitin substansiyasi yurak ritmi buzilishlarini oldini olishda tavsiya etishga, mamlakatimizda yangi mahalliy aritmiyaga qarshi dori vositalarining arsenali kengayishiga va uni O'zbekiston Respublikasi SSV huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi "Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi" DUK tomonidan bo'lmaxa va qorinchalarda yuzaga keladigan qo'zg'aluvchanlik bilan bog'liq ritm buzilishlarini oldini olishda qo'llovchi vosita sifatida foydalanishga tavsiya etishga imkon beradi. Mazkur dori vositasini klinik amaliyotga tadbir

etilishi yurak ritmi buzilishi bilan og‘rigan bemorlarda ritm buzilishlari yuzaga kelishi va ularning qaytalanishini profilaktik samaradorligini oshirishga imkon beradi, davolash tannarxini pasaytiradi va import dori vositalari o‘rnini bosuvchi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu import o‘rnini bosuvchi dori vositasini yaratilishi O‘zbekiston Respublikasida mahalliy xom ashyodan dori vositalarini ishlab chiqarish bo‘yicha dasturni bajarilishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Antiaritmik faollikka ega bo‘lgan N-dezatsetillappakonitinning peroral shaklini samaradorligini baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Og‘iz orqali qo‘llash uchun antiaritmik faollikka ega bo‘lgan vosita”ga O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining ixtiro patenti olingan (№ IAP 07392, 28.04.2023 yil). Natijada yangi aitmiyaga qarshi faollikka ega bo‘lgan dori vositasini yaratish imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari asosida 6 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 1 ta ixtiro patenti olingan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 145 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish ro‘yxati, ishning aprobatsiyasi natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida mahalliy va xorijiy adabiyotlar asosida *Aconitum* va *Delfinium* oilasiga mansub o‘simliklar asosida olingan turli alkaloidlarning farmakologik, toksikologik xususiyatlari, biologik faolligi bo‘yicha adabiyotlar sharhi berilgan. YuRB epidemiologiyasi, ritm buzilishi turlari, yuzaga kelish mexanizmlari hamda AAD tasnifi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta‘sirlari bo‘yicha manbalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarda foydalanilgan tajriba hayvonlari va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o‘rganilayotgan ob‘ektlar va uslubiy yondashuvlar, qo‘yilgan masalalar yechimi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu dissertatsiya ishida O‘zR FA O‘MKI eksperimental texnologiya laboratoriyasi

yetakchi ilmiy xodimi, texnika fanlari doktori A.Z. Sadikov tomonidan tayyorlangan N-dezatsetillappakonitin substansiyasi o'rganilgan.

N-dezatsetillappakonitin substansiyasini aritmiyaga qarshi vosita sifatida baholash bo'yicha tajribalar erkak-sichqonlar (18-22g) va erkak-kalamushlarda (150-220g) olib borildi. O'rganilayotgan birikmalar hayvonlarga og'iz orqali: 0,01 dan 1 mg/kg gacha yuborildi. Tajribalar 0,01%li eritma tana vazniga nisbatan moslashtirilgan dozada sichqonlarga va 0,1% li eritma tana vazniga nisbatan moslashtirilgan dozada kalamushlarga yuborilgan taniqli aritmiyaga qarshi vosita – allapinin va propafenon bilan solishtirgan holda olib borildi. Tajribalar quyidagi usullarda: akonitin va bariy xlor yordamida aritmiya chaqirish (Mironov A.N., 2012.), akonitin kiritish orqali yuzaga keladigan qorinchalar fibrillyatsiyasiga qarshi faolligiga (Makarova Yu.A., va hamm. 2013.), galoperidol hisobiga chaqiriladigan katelepsiya holatiga, korazol hisobiga chaqiriladigan his-hayajonga qarshi ta'sirini (Kilfoil T at al.,1989), “ochiq maydon” usulida (Hall C. 1936), va surunkali yuborilganda tana vazniga, harakatlanish aktivligiga, his-hayajonga va “ochiq maydon” usuli yordamida tekshiruvlar olib borildi. Quyida aritmiyaga qarshi faolliklari bo'yicha eng asosiy usullar haqida to'liqroq ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalamushlarda N-dezatsetillappakonitinni akonitin yordamida chaqirilgan aritmiyaga qarshi faolligi.** Ushbu usul AQDV ning  $I_C$  sinfiga mansub vositalarini faolligini aniqlash uchun asosiy usul hisoblanadi. Tajriba boshlanishidan oldin hayvonlarda EKG tahlili olindi (II standart ulanishda) va shundan so'ng akonitinning barcha tajriba guruhidagi hayvonlarda aralash bo'lma qorincha ekstrasistoliyasi chaqiradigan dozasi 12-15 *mg/kg* kalamushlar dum venasiga yuborildi. Yurak ritmi buzilishining shakllanishi, qoida (qonuniyat) ga asosan akonitin yuborish to'xtatilgandan keyin 1-2 daqiqalarda boshlandi. EKG da yozish akonitin yuborilgandan so'ng 1; 3; 5; 10; 15 va 20 daqiqalarda olib borildi. O'rganilayotgan modda og'iz orqali profilaktik maqsadda o'rganilayotganligi sababli akonitin yuborishdan 60 daqiqa oldin yuborildi. Olib borilgan barcha tajribalar nazorat tadqiqot sxemasiga muvofiq amalga oshirildi. O'rganilayotgan birikmaning aktivligi uning akonitin bilan chaqirilgan yurak ritmi buzilishlarini oldini olish bilan baholandi. Tajribalar yakunida o'rganilayotan birikmalarning o'rtacha samaradorlik dozasi  $ED_{50}$  hisoblab topildi ya'ni 50% hayvonlarda yurak ritmi buzilishini oldini olgan dozasi. Olingan natijalarni qayta ishlash Litchild va Uilkoksin usulida olib boriladi. Bundan tashqari  $LD_{50}$  ning  $ED_{50}$  ga munosabati ya'ni antiaritmik indeks (terapevtik ta'sir kengligi) hisoblab topildi. O'rganilayotgan birikmalarning antiaritmik indeksi mavjud antiaritmik dori vositalarining analogik (muqobil) ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. O'rganilayotgan birikmaning faolligini o'rganishda ma'lum antiaritmik dori vositalari bilan taqqoslash olib boriladi.

**Kalamushlarda N-dezatsetillappakonitinni bariy xlor yordamida chaqirilgan aritmiyaga qarshi faolligini** o'rganishda tajriba guruhidagi barcha kalamushlarda politop ekstrasistoliyalar ko'rinishidagi ritm buzilishlarini yuzaga keltiruvchi 15-20 *mg/kg* dozalardagi bariy xlor kalamushlar dum venasiga

yuborildi. Odatda 15-20 mg/kg bariy xlor eritmasini yuborish natijasida polifokal aritmiya rivojlanadi shuning uchun tekshirilayotgan moddaning yuzaga kelgan aritmiyani 15 daqiqa davomida kamaytiradigan yoki to'liq bartaraf etadigan dozasini tanlash zarur. O'rganilayotgan moddaning har bir dozasiidagi ta'sir samarasi % larda hisoblanadi.

**Kalamushlarda N-dezatsetillappakonitinni akonitin yordamida chaqirilgan fibrillyatsiyaga qarshi faolligini o'rganish.** O'rganilgan moddaning yurak qorinchalari fibrillyatsiyasiga qarshi ta'siri tajriba sharoitida laboratoriya oq sichqonlariga akonitinning 30-40 daqiqa davomida 100% holatda orqaga qaytmas yurak qorinchalari fibrilyatsiyasi va o'lim kuzatiladigan 200 mkg/kg dozasini vena orqali yuborish orqali aniqlandi. Bunda N-dezatsetillappakonitinni fibrillyatsiyaga qarshi faolligi muqarrar yurak qorinchalari fibrilyatsiyasini rivojlanishini oldini olishi va tajriba hayvonlarining yashovchanligi nazorat hamda solishtirma preparatlarga nisbatan mos ravishda foiz nisbatda ortishi bilan baholandi.

**N – dezatsetillappakonitinni markaziy va vegetativ nerv tizimining ba'zi bir qismlariga ta'sirini o'rganish** bo'yicha tajribalar oq sichqonlar va kalamushlarda olib borilgan. O'rganilgan moddaning anksiolitik faoligi Kilfoil usulida 25 mg/kg korazolni t/o ga kiritish orqali chaqirilgan anksiogenlikka qarshi ta'sir orqali, Rothman R. taklif etgan usul orqali 7 mg/kg dozadagi fenaminni t/o kiritish orqali chaqirilgan lokomotor faolligiga ta'siri hamda harakat va qidiruv faolligi Hall C. taklif etilga usul orqali aniqlandi. Shuningdek, M-xolinergik retseptorlarga ta'siri 10 mg/kg dozadagi arekolinni t/o ga kiritish oraqli chaqirilgan titroq (tremor) va salivatsiyani baholash orqali hamda tutqanoqqa qarshi faolligi esa 300 mg/kg dozadagi izoniazidni, 30 mg/kg dozadagi korazolni q/b ga, 1,2 mg/kg dozadagi strixninni t/o ga kiritish orqali chaqirilgan tutqanoq xurujlarini bartaraf etishi bo'yicha aniqlangan.

R.B.Strelkovda keltirilgan farmakologik ta'sirni tezlashtirilgan miqdoriy baholash uchun statistik jadvalga muvofiq va Windows XP statistik dasturlari (Excel) yordamida Styudent mezonini aniqlash orqali amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «Tajriba qismi» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilayotgan asosiy ob'ekt N-dezatsetillappakonitin (N-DAL) ning farmakologik xususiyatlari yoritilgan. Dastlab N-dezatsetillappakonitinning aritmiyaga qarshi faolligini o'rganish bo'yicha asosiy tajriba usullari haqida so'z yuritiladi. N-DALning akonitin orqali chaqirilgan aritmiyaga qarshi faolligini aniqlashda uning 0,01; 0,05; 0,1; 0,5 va 1,0 mg/kg dozalari kalamushlarga og'iz orqali yuborildi. 0,01 mg/kg dozada akonitin yuborilgach 4,8±0,3 daqiqadan keyin tajriba guruhidagi barcha kalamushlarda bo'lmacha – qorincha tipidagi yurak ritmi buzilishlari yuzaga keldi va ushbu ritm buzilishlari 60 daqiqa davomida tiklanmadi 80 daqiqadan keyin esa guruhdagi 80 % hayvonlarda o'lim kuzatildi. 0,05 va 0,1 mg/kg N-DAL yuborilgan tajriba hayvonlarning akonitin ta'sirida mos ravishda 6,4±0,23 va 9,3±0,28 daqiqadan keyin 80 hamda 50% da yurak ritmi buzilishlari yuzaga keldi. Ushbu ritm buzilishlari 0,05 mg/kg dozada 18±0,3 daqiqadan keyin tiklanib, 40% da 24±1,37 daqiqadan keyin o'lim kuzilgan bo'lsa, 0,1 mg/kg da esa ritm buzilishlari 9±0,4 daqiqadan keyin tiklanib 20 % kalamushlarda 35±0,24

daqiqadan keyin o'lim kuzatildi. 0,5 mg/kg dozada esa guruhdagi 20 % kalamushlarda 11,2±1,5 daqiqadan keyin ritm buzilishi kuzatilib, 6±0,48 daqiqadan keyin 100 % kalamushlarda ritm buzilishlari tiklangan bo'lsa, 1,0 mg/kg dozada guruhdagi birorta hayvonda akonitin ta'sirida ritm buzilishi kuzatilmadi (1-rasmga qarang).

### 1-jadval

#### N-dezatsetillappakonitinni turli dozalarda kalamushlarda akonitin orqali chaqirilgan yurak ritmi buzilishlariga aritmiyaga qarshi samaradorligi (n=10).

№	Modda nomi	Dozalar mg/kg da	Yurak ritmi buzilishlari			Hayvonlar yashovchanligi % larda	
			Ritm buzilishi % larda	Boshlanishi daqiqalarda	Davomiyligi daqiqalarda	o'lmadi % da	o'ldi % da
1.	Nazorat guruhi + akonitin	15 mkg/kg	100	2,83±0,12	tiklanmadi	20	80 (14±0,36 daq.)
2.	N-DAL	0,01	100	4,8±0,3* a,b	tiklanmadi	20	80 (18±0,12* a,b daq.)
		0,05	80	6,4±0,23* a,b	18±0,3* a,b	60	40 (24±1,37* a,b daq.)
		0,1	50	9,3±0,28* a,b	9±0,4* a,b	80	20 (35±0,24* a,b daq.)
		0,5	20	11,2±1,5* a,b	6±0,48* a,b	100	0
		1,0	0	-	-	100	0
3.	Allapinin	0,05	100	2,1±0,3*	tiklanmadi	0	100 (15±0,3* daq)
		0,1	80	4,7±0,16*	tiklanmadi	20	80 (21,2±0,6* daq)
		0,5	70	8,4±0,25*	15±0,27*	50	50 (35±1,1* daq)
		1,0	50	9,7±0,27*	11±0,5*	70	30 (40±4* daq)
		1,5	0	-	-	100	0
4.	Propafenon	3,0	100	3,96±0,2*	23,03±9*	30	70 (14,32±0,2* daq.)
		5,0	100	4,89±0,24*	18,85±2,4*	40	60 (15,67±0,54* daq.)
		7,0	100	5,75±0,12*	21,3±2,2*	60	40 (16,75±0,78* daq.)
		10,0	100	6,6±0,24*	26±0,6*	80	20 (25,63±0,96* daq.)

Izoh: \* - nazoratga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0,05.


<sup>a</sup> - allapininga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0,05.

<sup>b</sup> - propafenonga nisbatan ishonchlilik darajasi P < 0,05.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kalamushlarda akonitin yordamida chaqirilgan yurak ritmi buzilishining oldini olish va to'xtatish qobiliyatiga ko'ra, N-DAL allapinindan kam emas va hatto bir oz ustundir.

Allapinindan farqli ravishda akonitinli aritmiya fonida N-DAL dan foydalanish yurak ritmi buzilishlarini tezroq to‘xtashiga va normal sinusli ritmining tiklanishiga olib kelgan.

Shu bilan bir qatorda, quyida N-DALning 15 *mkg/kg* akonitinni kalamushlar dum venasiga kiritish natijasida yuzaga kelgan aritmiyaga qarshi faolligi yozib olingan EKG ko‘rsatkichlari. Bunda II standart ulanishdagi EKG yozuvlarini qog‘oz tasmaga tushirish yuzaga kelgan ritm buzilishi to‘liq barataraf etilgunga qadar amalga oshirilgan.



**1-rasm. N-DALning 15 *mkg/kg* akonitinni kalamushlar dum venasiga kiritish natijasida yuzaga kelgan aritmiyaga qarshi faolligi yozib olingan EKG ko‘rsatkichlari.**

Solishtirilgan moddalarning antiaritmik indekslar ( $LD_{50}/ED_{50}$ ) bo‘yicha taqqoslanganda, N-DAL allapiniga nisbatan terapevtik ta‘sir kengligiga ko‘ra afzalligini ko‘rsatdi.

2-jadvaldagi ma‘lumotlardan kelib chiqadiki, N-DAL profilaktik maqsadda foydalanilganda antiaritmik indeksi 1183 ni tashkil qildi, allapinining shunga o‘xshash ko‘rsatkichlari mos ravishda 115 ni tashkil etdi. N-DAL og‘iz orqali yuborilganda allapinindan 10 martadan ortiq ustun turadi. Binobarin, kalamushlarda akonitinli aritmiya modeliga oid tajribalarda N-DAL kuchli antiaritmik ta‘sir ko‘rsatdi.

**2-jadval**

**N-dezatsetillappakonitin va allapininning og‘iz orqali qo‘llanilganda**

**akonitin yordamida chaqirilgan aritmiyaga qarshi samaradorligini solishtirish**

Preparatlar	<i>LD</i> <sub>50</sub> , mg/kg og‘iz orqali	<i>ED</i> <sub>50</sub> , mg/kg	Aritmiyaga qarshi indeksi ( <i>LD</i> <sub>50</sub> / <i>ED</i> <sub>50</sub> )
		Profilaktik qo‘llanilganda	Profilaktik qo‘llanilganda
N – DAL	110 (98,2÷123,2) <sup>a,b</sup>	0,093 (0,04÷0,12) <sup>a,b</sup>	1183
Allapinin	57,5 (51,3÷64,4)	0,5 (0,12÷0,92)	115
Propafenon	4255 (3787÷4723)	5,75 (5,1÷6,4)	740

Izoh: <sup>a</sup> - allapininga nisbatan ishonchlilik darajasi  $P < 0,05$ .

<sup>b</sup> – propafenonga nisbatan ishonchlilik darajasi  $P < 0,05$ .

Shunday qilib, antiaritmik faollik jihatidan N-DAL allapinindan va ma‘lum antiaritmik vositalardan kam emas (2-jadvalga qarang). Antiaritmik ta‘sirning tezligi va terapevtik ta‘sir kengligi jihatidan ulardan ustun turadi.

**N- DAL ni fibrillyatsiyaga qarshi ta‘sir samarasini baholash.** N-DAL og‘iz orqali yuborilganda fibrillyatsiyaga qarshi ta‘siri oq sichqonlarda aniqlandi. Nazorat guruhidagi uyg‘oq sichqonlarga 200 *mkg/kg* dozada akonitinni vena ichiga yuborish qaytmas yurak fibrillyatsiyasi rivojlanishiga va dastlabki 30-40 daqiqa ichida hayvonlarning 100% nobud bo‘lishiga olib keldi.

**3 - jadval**

**Akonitinning o‘lim chaqiruvchi dozasi orqali chaqirilgan yurak qaytmas fibrillyatsiyasida N-DAL va allapininni aritmiyaga qarshi faolligini solishtirish (oq sichqonlarda)**

Preparatlar va yuborish usuli	Dozalar, mg/kg da	Akonitin 200 <i>mkg/kg</i> vena ichiga			Fibrillyatsiyaga qarshi himoyaviy samarasi, % larda
		Hayvonlar miqdori			
		Umumiy miqdori	Yurak fibrillyatsiyasidan o‘lganlari	Tirik qolgani	
Nazorat guruhi (akonitin)	200 <i>mkg/kg</i>	40	40	0	0
N - DAL og‘iz orqali	0.5	10	8	2	20
	1	10	5	5	50
	5	10	3	7	70
	10	10	0	10	100
Allapinin og‘iz orqali	0.5	10	9	1	10
	1	10	6	4	40
	5	10	3	7	70
	10	10	1	9	90

N-DAL ning og‘iz orqali 0,5; 1,0; 5,0 va 10,0 *mg/kg* dozalarda yuborilganda hamda 60 daqiqadan keyin 200 *mkg/kg* vena ichiga akonitin yuborilganda 20 daqiqadan so‘ng halokatli yurak fibrilatsiyasi rivojlanishini oldini oldi va o‘z navbatida mos ravishda 20, 50, 70 va 100% hayvonlarda o‘limni oldini oldi.

3-jadvalda ko'rsatilganidek, N-DAL, og'iz orqali yuborilganda, fibrillyatsiyaga qarshi faolligi allapininga birmuncha teng va 1,9 marta kam zaharli, shuning uchun yuqori fibrillyatsiyaga qarshi (indeksga) ko'rsatkichga ega.

**N-DALni davomli yuborilganda aritmiyaning akonitinli modeliga ta'sirini tekshirish.** N-DAL 0,01; 0,05; 0,1; 0,5; 1,0 va 2,0 mg/kg dozalarda og'iz orqali yuborilib akonitin orqali chaqirilgan yurak ritmi buzilishlarini bartaraf etishda aritmiyaga qarshi ta'sir davomiyligi bo'yicha tajribalar o'tkazildi. Bunda N-DAL yuqoridagi dozalarda og'iz orqali yuborilib 6; 7; 8; 9; 10; 12 va 17 chi soatlardan keyin kalamushlar dum venasiga 15 mkg/kg dozada akonitin yuborib yuzaga kelgan o'zgarishlar EKGda yozib olindi. N-DAL 0,01 mg/kg dozada 17 soatda akonitin yuborilgach,  $4,8 \pm 0,3$  daqiqadan keyin tajriba guruhidagi barcha kalamushlarda bo'lmacha-qorincha tipidagi yurak ritmi buzilishlari yuzaga keldi. 0,01 mg/kg dozada N-DAL yuborilgan kalamushlarda xuddi nazorat guruhiga o'xshab 10 tadan 2 tasida ritm buzilishlari tiklanmagan bo'lsa 8 tasida  $18 \pm 0,12$  daqiqadan keyin o'lim kuzatildi. 0,05 va 0,1 mg/kg N-DAL yuborilgan tajriba hayvonlarning akonitin ta'sirida mos ravishda  $6,4 \pm 0,23$  va  $9,3 \pm 0,28$  daqiqadan keyin 80 hamda 50% da yurak ritmi buzilishlari yuzaga keldi. Ushbu ritm buzilishlari 0,05 mg/kg dozada  $18 \pm 0,3$  daqiqadan keyin tiklanib, 40 %ida  $24 \pm 1,37$  daqiqadan keyin o'lim kuzilgan bo'lsa, 0,1 mg/kg da esa ritm buzilishlari  $9 \pm 0,4$  daqiqadan keyin tiklanib, 20% kalamushlarda  $35 \pm 0,24$  daqiqadan keyin o'lim kuzatildi. 0,5 mg/kg N-DAL yuborilgan kalamushlarning 20% akonitin ta'sirida  $11,2 \pm 1,5$  daqiqadan keyin yurak ritmi buzilishlar yuzaga keldi va bu ritm buzilishlar  $6 \pm 0,48$  daqiqadan keyin to'liq tiklandi va ushbu guruhdagi tajriba hayvonlarida o'lim kuzatilmadi. 1,0 mg/kg doza N-DAL yuborilgan kalamushlarda akonitin ta'sirida yurak ritmi buzilishlari yuzaga kelmadi.


Shunday qilib, N-DAL 0,05-0,1 mg/kg dozada og'iz orqali yuborilgandan keyin ritm buzilishiga qarshi ta'sir 30 daqiqa ichida sodir bo'lsa, 50-60 daqiqadan keyin ushbu ta'sir maksimal darajaga yetadi va 8 soat yoki undan ko'p davom etadi, 0,1 mg/kg dozada allapinin qo'llanilgan hayvonlarda esa sinus ritmi tiklanishi 40-60 daqiqadan keyin rivojlanib, 80 daqiqadan so'ng ushbu ta'sir maksimal darajaga yetadi va 8 soat yoki undan ko'p davom etadi.

O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tabletka formasidagi N-DAL hozirgi kundagi tibbiyotda keng qo'llanilib kelinayotgan preparatlardan ta'sirining boshlanishi, davomiyligi va terapevtik ta'sir doirasining yuqoriligi jihatdan ustunligi bilan farq qiladi.

Xulosa. N-DAL bo'yicha olib borilgan tajribalar akonitin yordamida chaqirilgan aritmiya modellarida farmakodinamik jihatdan davomli ta'sirga ega ekanligini namoyon etdi. Ushbu olingan natijalar preparatlar bir marta yuborilganda, N-DALda 16-17 soatgacha, allapininda 8 soatgacha, propafenonda esa 8-12 soatgacha, ta'sir etish davomiyligi bo'yicha yuqoridagi preparatlardan 2 marta ustunligini ko'rsatib turibdi.

Keyinchalik N-DAL ni 0,05; 0,1; 0,5; 1,0 va 2,0 mg/kg dozalarda bir xil vaqtda 2 kun davomida og'iz orqali yuborilib, 24 soatdan keyin 15 mkg/kg dozada vena ichiga akonitin yuborish orqali chaqirilgan aritmiyaga qarshi ta'siri EKG da

tekshirildi. Nazorat guruhiga 15 mkg/kg miqdorda vena ichiga akonitin yuborilganda  $2,83 \pm 0,12$  daqiqadan keyin qaytmas bo‘lmacha–qorincha tipida yurak ritmi buzilishlarini chaqirdi. N- DAL yuqoridagi dozalarda og‘iz orqali yuborib, 1 soatdan keyin esa 15 mkg/kg dozada vena ichiga akonitin yuborilganda EKG da yurak ritmi buzilishlari kuzatilmadi. Ushbu dozalarda bir vaqtda 5 kun davomida og‘iz orqali N- DAL yuborilib, 48 soatdan keyin 15 mkg/kg dozada vena ichiga akonitin yuborish orqali chaqirilgan aritmiyaga qarshi ta’siri EKG da tekshirildi. Olingan natijalar asosida EKG da yurak ritmi buzilishlari kuzatilmadi. Akonitin yordamida chaqirilgan aritmiya modellarida N- DAL moddasida o‘tkazilgani kabi solishtirma preparatlar allapinin va propafenonlarda turli dozalarda olib borildi. Olingan EKG xulosalari asosida ular orasidan eng samarali dozalari tanlab olindi hamda ta’sirini boshlanish vaqti, pik cho‘qqisi va ta’sir davomiyligi bo‘yicha natijalar olindi (2-rasmga qarang).



